

«KELISHILDI»

SamDAQU Xodimlar va talabalar
boshlang'ich uyushmasi qo'mitasi
raisi B.E.Elmuurodov
«23» 07 2025 y.

«TASDIQLAYMAN»

SamDAQU rektori

Ch. J. Turkeyilmaz

«23» 07 2025 y.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Sifat
nazorati koordinatorligi koordinatori (U.S.Sirojiddinov)ning lavozim

YURUQNOMASI

I. Sifat nazorati koordinatorining funksional vazifalari

1. Sifat nazorati koordinatori(Bo'lim boshlig'i) quyidagi asosiy funksional vazifalarni amalga oshiradi:

bo'limga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

bo'lim faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va universitet rektorining buyruqlari asosida tashkil etish;

universitetda ta'lim sifatining DTS va malaka talablariga muvofiqligi bo'yicha monitoring va nazorat faoliyatini olib borish (ichki ta'lim sifati auditini amalga oshirish);

universitetni kompleks va maxsus davlat akkreditasiyasidan o'tkazishga bosqichma-bosqich tayyorlab borish;

universitet bo'yicha respublika OTMLari Milliy reytingini aniqlashga doir statistik va tahliliy ma'lumotlarni tayyorlashni tashkil etish;

HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib borish (jumladan, HEMIS tizimiga ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq kiritilganligi)ni nazorat qilish;

professor-o'qituvchilarning darslarini kuzatish, sifatini baholash hamda xulosa va takliflarni rahbariyatga taqdim etish;

universitet professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini o'rganadi va xulosalarni universitet rektoriga ma'lum qiladi;

HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib boradi (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi)ni nazorat qiladi;

professor-o'qituvchilarning darslarini kuzatish, sifatini baholash hamda xulosa va takliflarni rahbariyatga taqdim etish;

oraliq va yakuniy nazorat sinovlarining xolisligini va shaffofligini ta'minlashda ishtirok etish;

universitetda ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatini aniqlash maqsadida ijtimoiy so'rovlarni tashkil etish;

universitet professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars

beradigan fan(lar)igiga mosligini o'rganish va yakunlari bo'yicha universitet rektoriga axborot berish;

ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatini o'rganish va ularni universitetdagi ta'lim jarayoniga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

Kafedra mudirlari va ta'lim sifatiga mas'ul xodimlar uchun seminar-treninglar tashkil etish;

universitetda ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy etilishini tashkil qilish.

II. Sifat nazorati koordinatori (Bo'lim boshlig'i) lavozimiga qo'yilgan malaka talablari

2. Sifat nazorati koordinatori (Bo'lim boshlig'i) lavozimiga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

oliy ma'lumotli, ilmiy darajaga yoki ta'lim sohasida muayyan tajribaga, nazariy bilimlarga, tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyati ega bo'lishi;

ta'lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

ta'lim muassasalaridagi pedagogik va ta'lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta'lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo'lishi;

universitetning tarkibiy bo'linmalari faoliyatidan xabardor bo'lishi;

ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan lozim darajada foydalanishni bilishi;

o'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunishi, yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr etish bo'yicha o'rnatilgan tartibni bilishi;

o'zbek, rus tillarini yoki xorijiy tillardan birini mukammal bilishi lozim.

Ushbu yo'ruqnoma Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-416 son Qarori 2-illovasi bilan tasdiqlangan Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetini transformasiya qilish va kompleks rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ning 12-bandiga asosan hamda "SamDAQU Sifat nazorati koordinatorligi to'g'risida NIZOM"ga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tanishdim:



U.S.Sirojiddinov